



# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– aprel holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **488 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **1,1 f.p. kamaydi.**
- Tugatilgan korxonalar va tashkilotlarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1,6 mingtaga oshgan.**


2018 yilning yanvar-aprel oyida viloyatda 1,9 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 547 taga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 40,3 % ga kamaygan hamda ularning soni 358 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1,8 mingta (6,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 28,7 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Qibray (11,1 %), Zangiota (9,6 %) va Toshkent (6,9 %) tumanlarida kuzatilmoqda.


## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 aprel holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>32,5</b>	<b>100,0</b>	<b>28,7</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo'rg'on	765	2,4	630	2,2
Ohangaron	736	2,3	654	2,3
Bekobod	889	2,7	764	2,7
Bo'stonliq	1576	4,8	1266	4,4
Bo'ka	1085	3,3	826	2,9
Quyichirchiq	798	2,5	719	2,5
Zangiota	3247	10,0	2763	9,6
Yuqorichirchiq	1861	5,7	1778	6,2
Qibray	3370	10,4	3190	11,1
Parkent	1647	5,1	1547	5,4
Piskent	854	2,6	775	2,7
O'rtachirchiq	1530	4,7	1386	4,8
Chinoz	1067	3,3	1019	3,6
Yangiyo'l	1656	5,1	1376	4,8
Toshkent	2316	7,1	1988	6,9
<i>shaharlar:</i>				
Nurafshon	750	2,3	697	2,4
Olmaliq	1374	4,2	1289	4,5
Angren	2207	6,8	1709	6,0
Bekobod	959	2,9	901	3,1
Ohangaron	799	2,5	713	2,5
Chirchiq	1844	5,7	1724	6,0
Yangiyo'l	1199	3,7	982	3,4


**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 88,2 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 11,8 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,7 f.p. kamaygan

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,3 % savdoda, 18,8 % sanoatda, 10,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 7,1 % qurilishda, 3,4 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 % axborot va aloqa va 26,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi**




2018 yil yanvar-aprel holatiga 1965 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 16,2 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Zangiota (203 ta), Qibray (174 ta) Toshkent (127 ta) va Yangiyo'l tumanlariga (123 ta) to'g'ri keladi. Eng kam Piskent (43 ta), Quyichirchiq hamda Ohangaron shahrida (50 tadan) Bekobod (52 ta) va Oqqo'rg'on (55 ta) tumanlari tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoatda (447 ta), savdoda (375 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (320 ta), qurilishda (246 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (143 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (24 ta), axborot va aloqada (34 ta) va tashish va saqlashda (71 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-aprel holatiga.	2018 yil yanvar-aprel holatiga.
<b>Jami:</b>	<b>1691</b>	<b>1965</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	367	320
Sanoat	435	447
Qurilish	123	246
Savdo	299	375
Tashish va saqlash	74	71
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	165	143
Axborot va aloqa	31	44
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	27	32
Boshqa turlari	170	287


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-0,8 f.p), savdo va boshqa faoliyat turlarida (-0,6 f.pdan), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (-0,2 f.p.), axborot va aloqada (-0,1 f.p.) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+0,6 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,8 f.p.) hamda qurilishda (+0,9 f.p.) ulushining o'sishiga olib keldi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.05.2018 y.	01.05.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1,8	2,6	-0,8
Savdo	22,3	22,9	-0,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,6	7,8	-0,2
Axborot va aloqa	1,3	1,5	-0,1
Tashish va saqlash	3,4	3,4	0,1
Sanoat	18,8	18,1	0,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	10,9	10,1	0,8
Qurilish	7,1	6,2	0,9
Boshqa turlar	26,7	27,4	-0,6

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 may holatiga 23,5 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5,5 mingta, oilaviy korxonalar – 1,4 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 15,9 mingta, aksiyadorlik jamiyatlari – 0,05 mingtani va boshqalar 0,6 mingtani tashkil etadi.




## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 644 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 550 taga yoki 17,1 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 388 tasi qo'shma korxonalar, 256 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Zangiota tumani 83 ta (12,9 %) Qibray tumani 76 ta (11,8 %) va Yuqorichirchiq tumani 64 ta (9,9 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Piskent, Bo'ka tumanlari 6 tadan (0,9 %) Bekobod shahri 5 ta (0,8 %) va Bekobod tumani 4 ta (0,6 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hudular kesimidagi soni, birlikda





Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 may holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 409 ta (63,5 %), savdoda 87 ta (13,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 57 ta (8,9 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 45 ta (7,0 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 1 ta (0,2 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 6 ta (0,9 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 11 ta (1,7 %), tashish va saqlashda va qurilishda 15 tadan (2,3 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-aprel oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 55 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 38 taga ko'paygan yoki 3,2 baravarga oshgan.


Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi-17 ta, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 11 ta, Turkiya Respublikasi – 8 ta, Qozog'iston Respublikasi – 7 ta, Buyuk Britaniya va Koreya Respublikasi– 2 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Chexiya Respublikasi, Isroil davlati, Latviya Respublikasi, Moldova Respublikasi, Singapur Respublikasi, Turkmaniston va Amerika Qo'shma Shtatlarilar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-aprel holtiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, sanoatda 36 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 7 ta, savdoda 6 ta, Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda tashish va saqlashda 2 tadan, qurilish va boshqa turlarda 1 tadan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 may holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 23,3 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 may holatiga qaraganda 10,3 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2,7 mingtasi (11,6 %) Qibray, 2,3 mingtasi (10,0 %) Zangiota, 1,7 mingtasi (7,4 %) Toshkent hamda 1,5 mingtasi (6,6 foizi) Yuqorichirchiq tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 23,3 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6,3 mingtasi (27,3 %) – savdoda, 5,3 mingtasi (22,7 %) - sanoatda, 3,1 mingtasi (13,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 2,1 mingtasi (9,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 2,0 mingtasi (8,7 %) - qurilishda, 1,0 mingtasi (4,1 %) - tashish va saqlashda, 0,4 mingtadan (1,7 %) - axborot va aloqa sohasida hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2,7 mingtasi (11,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-aprel holatiga 1,8 mintaga yaqin kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 10,4 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Zangiota (194 ta), Qibray (164 ta) va Toshkent tumanlarida (113 ta) tashkil etilgan. Eng kam Piskent tumani (37 ta) hamda Ohangaron (43 ta), Nurafshon (44 tadan) shaharlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (445 ta), savdoda (375 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (319 ta) va qurilishda (246 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (29 ta), axborot va aloqada (44 ta) hamda tashish va saqlashda (56 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 may holatiga 1617 tani tashkil etib, ulardan 1443 tasi yoki 89,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **11,7%**ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 39,5 % yoki 570 tasi sanoat, 18,4 % yoki 266 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,4 % yoki 251 tasi savdo, 16,5 % yoki 238 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,0 % yoki 14 tasi qurilish, 0,8 % yoki 12 tasi tashish va saqlash, 0,3 % yoki 5 tasi axborot va aloqa, 0,3 % yoki 4 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 5,8 % yoki 83 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat  
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida  
tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul: **X.Igamberdiyev**  
(0371) 230-86-84,83